**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqlarning javobini toping.

Javoblardagi birinchi bo g'inlardan so‘z hosil qiling.

1. Ikki singil, og‘ir-yengil.

2. Qirg‘oq bilan suv o'rtasida nima bor?

3. U xarita ham mato,

Qani, o‘ylab ko‘r birpas,

Topolsang, nomi ...

Tabiat  mo‘jizalari

Olamda insoniyat tomonidan yaratilgan qanchadan qancha mo'jizalar bor. Antiqa inshootlar, binolar, go‘zal bog‘lar. Ammo tabiatning asl tabiiy mo'jizalarini ko‘rganimizda chindan ham lol qolamiz. Sayyoramizda hali ochilmagan qancha sirlar bor ekan?..Katta kanyon - dunyodagi eng chuqur va keng maskanlardan biridir. U AQSHning Arizona shtatidagi Kolorado yassitog‘larida joylashgan. Uning uzunligi 446 km. Eni 6 km dan 29 km gacha cho'ziladi. Chuqurligi esa 1800 m. Amazonka dunyoning eng sersuv daryosi bo'lib, Janubiy Amerikada joylashgan. Maranon va Ukayali daryolari birlashuvidan hosil bo'lgan. Amazonkaning uzunligi ilmiy doirada bahsli sanaladi. Bu borada turli qarashlar mavjud: Maranon manbalarida 6400 km, Apachet manbalarida 6992 km, Ukayali manbalarida esa 7100 km deb berilgan. Amazonka uzunligi bilan Nilga qiyoslanadi. Daryoning yillik suv sig‘imi 6937 km3, ya’ni sutkasiga taxminan 19 km3 suv oqadi. 2011 -yilda butun dunyo tanlovida Amazonka dunyo mo‘jizalari qatoriga kirgan. Sayyoramizdagi eng baland cho‘qqi bolmish Everest dengiz sathidan 8848 m balandlikda joylashgan. U Himolay tog1 tizmasiga mansub bo lib, Xitoy va Nepalga chegaradosh. Uzoq vaqt davomida tog’ balandligini aniq o'lchash qiyin bo'lgan. Nepal tadqiqotchilarga o‘z hududlariga kirishlariga izn bermagan. Shu sababli boshqa davlatlar ko‘p asrlik tog’ - Jomolungma haqida hech nima bilmagan.Uni 50 km naridan ham ko‘rish mumkin.Viktoriya - Janubiy Amerikadagi Zambeziya daryosida joylashgan sharshara. Viktoriya dunyodagi eng katta sharshara deb tan olingan.U Niagara sharsharasidan ikki baravar baland, eniga ham undan kattaroq.Sharsharadan oqib tushayotgan suv tomchilari 400 m balandlikkacha otiladi. Sahroyi Ka bir - yeryuzidagi eng katta cho‘1. Uning maydoni deyarli 9 mln km2, bu deyarli AQSHdan biroz kichik hududga tengdir. Sahroyi Kabir Shimoliy Afrikada, o‘nga yaqin davlat hududida joylashgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, taxminan 6000 yil avval Sahroyi Kabirda daraxtlar o'sgan va ko‘plab ko'llar bo'lgan.Sahroyi Kabirda har yili 160 mingga yaqin sarob hosil bo'ladi. Ular muntazam va vaqtinchalik hamda vertikal va gorizontal shaklda bo’ladi. Hatto ayrim yerlarda karvon yo'llari uchun maxsus xaritalar ham shakllantirilgan, o‘sha yerlarda saroblar ko‘rinadi. Ushbu xaritalarda voha, palma o‘rmonlari, tog' tizmalari ko'rinishi aks etgan.





**To‘g‘ri berilgan ma’lumotlarni aniqlang.**

1. Katta kanyon – Janubiy Amerikada joylashgan.
2. Sahroyi Kabir – AQShda joylashgan.
3. Amazonka daryosi – Janubiy Amerikada joylashgan.
4. Viktoriya sharsharasi – Xitoy va Nepalga chegaradosh.
5. Everest – Himolay tog‘ tizmasiga mansub.

**Berilgan ma’lumotlar asosida quyidagicha jadval tuzing.**

| Janubiy Amerika | Amazonka |
|---|---|
| ... | ... |

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Qo‘shimcha manbalardan tabiat mo‘jizalari haqida ma’lumotlar toping. Uni o ‘rganganlaringiz bilan solishtiring.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Mo‘jiza U. Abduazimova**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**
turli yo‘nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san’atga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**






## Mo‘jiza

Umida Abduazimova

Mo‘jizani yo‘q degan
Bolaga gapim lo'nda:
Nega qizarib qoldi
Olchamiz unda?
Kechqurun boqqa chiqsak,
Qop-qorong‘i bog'imiz.
Nimaga o‘chib qoldi
Shamchirog'imiz?
Ko‘kka boqdi ko‘zimiz,
Charaqladi yulduz-oy.

Ko‘nikib qorong'iga
Ko‘rindi har joy.
Nimaga degan savol
O'rab har yonni,
O'roq qilib oldik so‘ng
Mo‘jizajonni.
Mo'jizaga ishonib,
Mo'jiza kutar.
Bolalarga har bir kun
Mo'jiza tutar.





Nuqtalar o‘rniga she’r matnida berilgan so‘zlarning ma’nodoshini qo‘llab, she’rni qayta o‘qing.

| | |
|---|---|
| ... boqdi ko‘zimiz, | ... yulduz-oy. |
| ... qorong‘iga | ... har joy. |

Ajratib ko‘rsatilgan harflarni birlashtirib o‘qing.

Mvfbo‘knvjyniopzsdraxzcfgtqtuauytitresh
kjhoasdnbvmibngb
Mxzcfo‘ynjyniopznhgsadrkdsrugbvtmartdr
Bkgtoertlhnbadfglrfanbvcfrkjhgxcfdratyu
ghvcxamjurbsvidrjhkvcduytn
Mxzcfo‘ynjyniopznhgsadrtdrugbvtlkmardr

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali yod oling.

**O‘IBDO‘:** ____________________ ____________ ____________
(imzo) (sana)

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Dengiz suvi nega sho‘r?**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash;

yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Berilgan so'zlarni ranglari bilan ko'rsatib ayting.



Tuzning ikki yuzi

Yer yuzida dengiz (dengiz tuzi) va minerallar (tosh tuzi)dan olinadigan juda katta tuz zaxiralari mavjud. Oshxona tuzi hayotiy ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Hatto tadqiqotlarsiz ham, odamlar boshidanoq tuz juda qimmatli, foydali va yordamchi modda ekanligini tushunishgan. Boshqa tomondan esa, haddan tashqari sho'rlanish tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi. Bu o'simlik ildizlari tuproqdan mineral moddalarni yetarlicha olishiga to'sqinlik qiladi**.**

Ertakdagi aka-ukalarga ta’rif bering.

Ertak voqealarining ketma-ketligini aniqlang.

| | |
|---|---|
| A | Ana shunda ham, tosh tuz chiqarishdan to‘xtamabdi. Aytishlaricha, hozirda ham u to‘xtamaganmish. |
| B | Eh, onajon, akam shaharda katta amaldor bo‘lib ketgan. |
| D | Sehrli tosh haqidagi xabar butun mamlakatga yoyilibdi. Bu xabar akaning ham qulog'iga yetib kelibdi. |
| E | Ulardan kichigi onasi bilan qishloqda, kattasi esa shaharda yashar ekan. |
| F | Xizmatkor xo‘jayinining aytganini qilib, ukani oshxonaga boshlab kiribdi. |
| G | Yigit yon-veriga qarab, o'simlik ildizlarini terayotgan kampirga ko'zi tushibdi. |
| H | Kampir yigitga sehrli toshdan qanday foydalanishni tushuntirib beribdi. |
| I | Yetti qiz makon tutgan joyni topib, ularga suyakni berib, orqaga qaytmoqchi bo‘libdi. |
| J | Toshni olgach, onasining javobini kutmasdanoq katta kemada yo‘lga chiqibdi. |
| K | “Tuz ber, tuz ber, tuz ber, yana, yana, yana”, – deb qichqiribdi. Shu onda tuz qor uyumi kabi kemani to'ldira boshlabdi. |

**Ertak mazmuniga mos maqollarni o‘qing.**

- *Bekorchidan el bezor,*
  *So‘zidan ko‘ngil ozar.*
- *Gap bilan shoshma,*
  *Ish bilan shosh.*
- *Yomon odam to‘ymas,*
  *Yomonligini qo‘ymas.*
- *Mehr bilmas qarindoshdan,*
  *Mehr bilgan yot yaxshi.*
- *Mehnat, mehnatning tagi rohat.*
- *Mehri borning sehri bor.*

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** “ Dengiz suvi nega sho'r?” ertagini qayta so'zlab bering. Tabiatda ham dengiz suvi nega sho‘r bo'lishi haqida ma’lumot topib yozing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Telebola. I qism. X To'xtaboyev**
**Maqsadlar:**
**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg'ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**
turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;
o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;
o'qib-o'rganib borish orqali bilimini oshirib borish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.
**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqning javobini toping. U haqida nimalarni bilasiz?

**Katta quti, ko'zi bor,**
**Ko'p tomosha, so'zi bor.**

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod arman podshosining qizi Shirinni ko'zguda ko'rib qoladi... Ana o'sha ko'zgu hozirgi oynayi jahonning ajdodi hisoblanadi. Ko'zgu orqali ota-bobolarimiz televizor yaratish g 'oyasini ilgari surishgan. Bolalar, siz televizorni kim qayerda ixtiro qilganini bilasizmi? Televizor Toshkentda ixtirochilar I.F.Belyanskiy, B.P.Gradovskiy tomonidan ixtiro qilingan. Ular tajribalar o'tkazib, elektron nur yordamida harakatdagi tasvirni bir joydan boshqa joyga uzatadigan va qabul qiladigan "radiotelefot"

apparatini yaratishdi va uni laboratoriya sharoitida 1928-yilda sinab ko‘rishdi.

Telebola

Xudoyberdi To'xtaboyev

(Peshonasiga teievizor yopishib qolgan bolaning sarguzashttari)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonlarda emas, o'zimizning shu kunlarda go‘zal Farg'ona tomonda, undan ham go'zal Tagob qishlog‘ida Omonboy degan bola yasharkan. O‘zi juda hushyor, aqlli ham ekan. U televizor tomosha qilishni yaxshi ko'rarkan. Har kuni o‘n soat televizor tomosha qilmasa, ham oyog'i, ham tomog‘i og‘rib qolarkan. Dars tayyorlayotganda eski televizorning ichidagi ashqol-dashqolini olib tashlab, bo‘shagan qutichasining ichiga kirib olib tayyorlar ekan. Shunday qilmasa, miyasiga hech narsa kirmas ekan. O‘sha kuni Omonboyning maktabga borgisi kelmabdi. Yo‘q, borgisi ham bor ekan-u, dars tayyorlamagan ekan, shuning uchun borgisi kelmabdi. Dadasi bilan oyijonisi barvaqt ishga jo ‘nashibdi. Keta turib oyijonisi: “Jon o‘g‘lim, avval qaymoq bilan nonushta qilgin, keyin echkingga xashak solgin, keyin tovuqlaringni katakka qamab qo'ygin, so‘ng maktabga keta turib kalitni Xosiyat xolangga berib ketgin”, degan ekan. Omonboy hech qaysini bajarmabdi, yo‘q-yo‘q, bajarmoqchi ekan-u, ularni bajargani ketsam, televizordagi qiziq-qiziq tomoshalar o'tib ketib qoladi, deb qo‘rqibdi. To‘g‘ri-da, qiziq-qiziq tomoshalar o’tib ketib qolsa, hammaga ham alam qiladi-da. Katta televizor uyda, dadajonisi dalada suv quyganda ko'rib yurarman, deb olib kelgan kichkina televizorcha ayvonda, xontaxtaning ustida ekan. Omonboy chaqqon bola bo‘lgani uchun goh unisiga, goh bunisiga o‘tib, tomosha ko'ra boshlabdi. Katta televizorni tikka turib, kichkina televizorni chalqancha yotib, qomini yerga berib, qiziq-qiziq joylari kelganda xuddi suvda suzib ketayotgandek oyoqlarini gilamga tapirlatib urib-urib tomosha qilar ekan. Eh, o‘sha kuni juda-judayam zo‘r bo'libdi, bir-biridan qiziq tomoshalar emish. Unisiga qarasang, bunisi qolib ketar emish, bunisiga qarasang, unisi. Kun botay-botay deganda Omonboyning boshi aylanib, ko‘zi tinib, qulog'idan g‘alati-g‘alati ovozlar eshitilarmish, xuddi qulog'ining ichida pakana-pakana odamlar chiqib kelayotganga o'xsharmish. Keyin sehrli voqea yuz beribdi, ha-ha, chinakam sehrli hamda sirli emish. Xontaxta ustida turgan televizorcha pastga tush Omonboy tomonga qarab surilib kelayotgan emish. Uning odamga o'xshash boshi, javdirab turgan ko‘zi, shalpangquloqlari ham bor emish. Surilib kelib-kelib, Omonboyning peshonasiga chippa yopishib qolibdi.

ashqoi-dashqot- ro‘zg‘orda yoki biror kasb-
korda kerak bo'ladigan narsalar
chatqancha - orqani yerga berib, osmonga qarab
javdiramoq - najot izlab, iltijo bilan qaramoq, termilmoq

Maqollarni davom ettiring va ularni izohlang. Hikoya mazmuniga moslarini yoddan aytishga harakat qiling.

- Bugungi ishni ... ... .
- Olim bo‘lsang, ... seniki.
- Xato qilmoqlik bordir, ... ... .
- Kamtarga kamol, ... ... .

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani sozlab bering.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Telebola. Il-lll qismlar**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;

kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

turli yo‘nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san’atga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;

yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;

o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;

o‘qib-o‘rganib borish orqali bilimini oshirib borish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Rasmlarni ifodalovchi so'zlar yordamida
mazmunan mos keladigan gap tuzing.



Telebola

Xudoyberdi To'xtaboyev

(Peshonasiga televizor yopishib qotgan botaning sarguzashtiari)

- Voy! - debdi Omonboy peshonasini ikki qollab ushlab. Keyin qo'rqib ham ketibdi. O‘rnidan turmoqchi ekan, qiziq, boshi zil-zambildek og‘ir emish. Peshonasiga yopishib qolgan televizorchani olib qolmoqchi ekan, televizorcha miyasining ichiga kirib ketayotgan emish. Boshimning og‘irligi shundan bo‘lsa kerak, deb o‘ylab battar qo'rqib: - Voy dod! - deb o'midan turib ketibdi. Xayriyat, shu paytda fermadan qaytgan oyijonisi ko‘cha eshikni sharaqlatib ochib kirib kelayotgan ekan, qo‘ltig‘idagi bir quchoq o‘tni yerga tashlab: - Voy bolam, nega dodlaysan? - deb so'rabdi. - Peshonamga televizor yopishib qoldi, ko‘rmayapsizmi? - deb rosmana yig'lab yuboribdi Omonboy.- Voy o‘lmasam, chindan ham peshonang shishib ketibdi. Shunday deb mehribon oyijonisi o‘g‘lini tizzasiga olib, peshonasini silasa, tavba, peshonasi qolni kuydiradigan darajada issiq emish.- Voy olmasam, seni qovog'ari chaqqanga o'xshaydi, - debdi yana oyijonisi.Omonboy yiglab: - Ari chaqqani yo‘q, kichkina televizorcha miyamga kirib qoldi, mana, o'zingiz paypaslab ko'ring, mana, ekrani, mana, buraydigan joylari, ana, otliqlar kelyapti, qo'llarida yalang'och qilichi bor. Ana, qo‘sh karnaylar chalindi, qoching, hozir jang boshlanadi, - degan gaplarni aytarmish. Oyijonisi qo‘rqib ketibdi, juda-juda qo‘rqibdi, suyukli o‘g‘lini ko‘tarib, ichkariga o’zi kirmoqchi bo'lgan ekan, voy tavba, o‘g‘li zil-zambildek og‘ir emish. Bunday qarasa, xontaxta ustida turgan kichkina televizorcha ham yo‘q bo'lib qolgan emish. Oyijonisi qo'shnilarini chaqirib chiqibdi. Omonboyning peshonasida televizorchaga o'xshash bir narsa borligini ular ham ko‘rishibdi. Bitta qo'shnisi: “ Bu o g lingiz o‘zi hazilkash edi, odamlarni kuldiraman, deb televizorchani ataylab peshonasiga yopishtirib olgandir”, desa, yana bitta qo‘shnisi: “Tavba, bolaning peshonasida hech narsa yo‘q-ku, sal-pal shishinqirab qolibdi xolos, hadeb vahima qilaverasizlarmi?” dermish.- Televizorchani biron kishiga berganing yo‘qmi? - deb so'rabdi o‘g‘lidan.- Peshonamning ichida deyapman-ku!Endi Omonboy dodlab yuboribdi. Oyijonisi ham qo'rqib ketibdi.Qiziq, televizorcha Omonboyning peshonasida bir paydo bo'larmish, yana bir yo‘q bo'lib qolarmish. - Ajinalar o‘yin qilyapti, - debdi bitta qo‘shnisi.- Sehrgarlarning ishiga o'xshaydi bu, - debdi kap-katta bir odam.- Osmondan uchar likopchalarda noma’lum odamlar tushib, miyasiga televizorchani joylab bir ko'rinadigan, bir ko'rinmaydigan qilib qo'ygan , - degan gapni aytibdi qolida gazeta ushlab turgan bitta amaki. - Mana, gazetada o‘sha haqda yozishgan, - deb qo'shimcha ham qilibdi. Vahimali gaplar ko'paygandan ko‘payaveribdi. Qo'rqqanidan Omonboyning rangi oqarib ketayotganmish. Oxiri, peshonasidagi bir ko'rinib, bir yo‘q bo‘lib qolayotgan televizorcha sehrlimi, sehrli emasmi, shuni sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Bu foydali gapni Omonboyning jonajon o‘rtog‘i Davronboy aytibdi. Nega desangiz, u Omonboyning chinakam do‘sti ekan. Qirq yilga o'rtoq bo'lamiz, deb jimjiloqlarini birlashtirib olishgan ekan. Birga o'qishar, bir partada o tirishar ekan, narigi mahallaning bolalari bilan koptok o‘ynashganda bittasi hujumda, bittasi himoyada turib, o'ntadan to‘p urishar ekan. Shuning uchun ham jonajon o‘rtog‘ining joni qiynalayotganini ko‘rib, hammadan ko'ra ko‘proq ana shu Davronboy achinibdi, yig'lab yuboray-yig‘lab yuboray debdi.Mahallada Turg'un aka degan televizor ustasi bor ekan. Sinab ko‘rish uchun ana shu amakini chaqirib keladigan bo'lishibdi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qib, so'zlab berishga tayyorlaning. Ta’til vaqtida shu kitobni o ‘qib, sarguzashtlar yakuni bo‘yicha xulosa chiqaring.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

## 2- dars STO’

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Bo‘lim  yuzasidan  takrorlash**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.
**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**
bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Nuqtalar  o ‘rniga  bolim da  berilgan  mavzularda qatnashgan  s o‘zlardan foydalanib,  so‘z  birikmasi  tuzing.


Buyuk Xitoy devori kabi uzun.
Amazonka daryosi kabi ... .
... kabi ... .

Rasmlar asosida so‘zlarni o ‘zaro bog'lab gap tuzing.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Bo'limda o‘rganganlaringiz asosida “ Mo‘jiza haqida men bilganlarim” mavzusida matn yozing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-9**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** Vatan va tabiat go‘zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakillantirish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Inson fe’lida uchrab turadigan ba’zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to‘la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**
mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.
**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**
bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
**1. Quyidagi jumlani to‘g‘ri tugating:**
Bahor kelganda, tabiat _____.
a) qor yog‘adi
b) gullar ochadi
c) barglar tushadi
d) quyosh botmaydi
**2. “O‘qish” so‘zining to‘g‘ri lug‘at ma’nosini toping:**
a) yozish
b) kitobdan ma’lumot olish
c) o‘rganish
d) gapirish

**3. To‘g‘ri imlo qoidasi qaysi jumlada?**
a) Men kitob o‘qidim.
b) Men kitob oqidim.
c) Men kitob oqidim.
d) Men kitob oqidim.
**4. Quyidagi gaplardan qaysi biri so‘zni sinonimi bilan to‘ldirish mumkin?**
“U juda tez yuguradi.”
a) sekin
b) shoshilmasdan
c) chaqqon
d) sust
**5. Matn asosida savol:**
Matn: “Bahorda qushlar uylariga qaytadi. Daraxtlar yashil barg bilan bezaladi.”
Savol: Bahorda nima sodir bo‘ladi?
a) Qushlar qishlaydi
b) Daraxtlar bargsiz bo‘ladi
c) Qushlar qaytadi va daraxtlar yashillanadi
d) Havo soviydi
**6. To‘g‘ri tinish belgisi bilan jumlani tugating:**
“U maktabga keldi____”
a) .
b) !
c) ?
d) ,
**7. “Ona” so‘zi qaysi so‘z turiga kiradi?**
a) ot
b) sifat
c) fe’l
d) olmosh
**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Bo'limda o‘rganganlaringiz asosida “ Mo‘jiza haqida men bilganlarim” mavzusida matn yozing.

**O‘IBDO‘:** ____________________ ____________ ____________
*(imzo)* *(sana)*